

TILNING LEKSIK-SEMANTIK TIZIMI,
QIYOSIY TIPOLOGIK IZLANISHLAR VA
ADABIYOTSHUNOSLIK MUAMMOLARI

MATERIALLAR TO‘PLAMI

XV



**O`ZBEKISTON REESPUBLIKASI OLIY TA`LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI

**TILNING LEKSIK-SEMANTIK TIZIMI,
QIYOSIY TIPOLOGIK IZLANISHLAR VA
ADABIYOTSHUNOSLIK MUAMMOLARI**

MATERIALLAR TO`PLAMI

XV

**"Durdona" nashriyoti
Buxoro – 2025**

UO‘K 81'372(08)+81'25(08)

81.2-3+81.2-7

T 43

Tilning leksik-semantik tizimi, qiyosiy tipologik izlanishlar va adabiyotshunoslik muammolari XV [Matn] : to'plam / M.I. Gadoeva.- Buxoro: Sadridin Salim Buxoriy, 2025.-256 b.

KBK 81.2-3+81.2-7

To'plamda Respublikamiz olimlari, ilmiy tadqiqotchilarning filologik mavzular doasidagi, jumladan, aniq til dorisidagi lingvistik qarashlari; qiyosiy–tipologik izlanishlari; tillarni o'rganish vositalari va millat, milliy madaniyatning amaliy globallashi davrida tildan foydalanish muammolari, qo'llanma, tillarni o'rganish usullari; adabiyotshunoslik, tarjimashunoslik istiqbollari borasidagi fikr-mulohazalari o'z ifodasini topgan.

To'plam filologik yo'nalishdagi ilmiy izlanuvchilar, katta ilmiy xodim izlanuvchilar, talabalar, magistrlar va talabalarga mo'ljallangan.

Tahrir hay'ati:

Xamidov O.X., (BuxDU professori), **Rasulov T.X.** (BuxDU professori), mas'ul muharrir **Rasulov Z.I.** (BuxDU f.f.d. (DSc), **Gadoyeva M.I.** (BuxDU f.f.d. (DSc), **Haydarov A.** (BuxDU professori), mas'ul kotib **Djumaeva N.Dj.** (BuxDU f.f.f.d. (PhD))

To'plovchi va nashrga tayyorlovchi:

M.I.Gadoyeva filologiya fanlari doktori (DSc),

Taqrizchilar:

Davlatova M.X., Buxoro davlat tibbiyot instituti dotsenti, f.f.f.d.(PhD)
Qobilova N.S., BuxDU Ingliz tilshunosligi kafedrasida dotsenti, f.f.f.d.(PhD)

To'plamdan o'rin olgan maqolalardagi fakt va raqamlarning haqqoniyligi, mazmuni va savodxonligi uchun mualliflarning o'zlari mas'uldirlar.

BuxDU Ilmiy texnik kengashda muhokama qilingan va nashrga tavsiya etilgan (6-sonli bayonnoma, 25-yanvar, 2025-yil).

ISBN 978-9910-634-64-2

INGLIZ VA O'ZBEK TILLARIDA ANTROPONIMLARNING LEKSIK-SEMANTIK TAHLILI

Nazarova Navbahor Ahrorovna

Buxoro Davlat Universiteti,

Ingliz tilshunosligi kafedrasi o'qituvchisi

Annotatsiya: Antroponimlar inson nomlari bo'lib, ular har bir xalqning madaniyati va tarixini o'z ichiga oladi. Har bir tilning antroponimlarida o'ziga xos xususiyatlar va boshqaruv elementlari mavjud. Ushbu maqolada ingliz va o'zbek tillaridagi antroponimlarning leksik-semantik tahlili o'rganiladi.

Kalit

so'zlar: tahlil, madaniy, ijtimoiy, antroponim, e'tiqod, ahamiyat, tarixiy omil, diniy kontekst, turkiy ildizlar, xususiyatlar, milliy urf-odatlar, qiyosiy

Jahon tilshunosligida kishi nomlarini o'rganish, muayyan ismning paydo bo'lishi, tanlanishi va ism qo'yilishi masalalari uzoq vaqtdan buyon tilshunoslar, etnograflar va nomshunoslar diqqatini jalb etib kelayotgan masalalardan biridir. Biror bir etnografik ma'no aslida ismning yuzaga kelishi uchun asos bo'lgan ehtiyojni anglatadigan sabab hisoblanadi. Ismlarning yuzaga kelishi nafaqat ma'naviy, balki moddiy va amaliy tadbirlarni ham o'z ichiga oladi. Ismlarning qo'yilishi o'sha millat dunyoqarashi, mentaliteti, ijtimoiy, moddiy, madaniy darajasi hamda ma'naviyati bilan chambarchas bog'liq bo'ladi. Shu sababdan antroponimlar o'sha millatning milliy-madaniy saviyasi, an'analari, urf-odatlari, etnik kelib chiqishi, rasm va rusumlar, udumlar, e'tiqod va tasavvurlar bilan uzviy aloqadordir. Shuningdek, qo'yilgan nom bolaning sog' bo'lishi, yashab ketishi, kelajak baxti, uning kelgusidagi hayotini belgilashda ham muhim omil hisoblanadi. Antroponimlar o'ziga xos ravishda bir xalqning madaniyati, tarixi va falsafasini aks ettiradigan muhim elementlar bo'lib, ularning qiyosiy tadqiqi tilning ijtimoiy va ma'naviy jihatlarini anglashda muhim ahamiyatga ega. Shuning uchun har bir tildagi antroponimlar, xususan ingliz va o'zbek tillaridagi antroponimlarni qiyosiy tadqiq qilish va antroposentrik paradigmada o'rganish o'ta dolzarb hisoblanadi. Antroposentrik paradigmani inobatga olgan holda, inson va uning mavjudligi, tarixi, madaniyati, e'tiqodlari va ijtimoiy aloqalari antroponimlar orqali juda yaxshi aks etadi. Antroponimlar shaxslarning shaxsiyati, hissiyotlari va o'ziga xos xususiyatlarini aniq ifoda etishda

muhim vositalardir. Ingliz va o'zbek tillaridagi antroponimlarning kelib chiqishi, ma'nosi, konteksti va ijtimoiy o'rinlarini tadqiq qilish, ularning insoniyat rivoji va diniy e'tiqodlar bilan aloqasini o'rganishga yordam beradi. Antroponimlarni qiyosiy tahlil qilish jarayonida, tilshunoslar barcha detallarni inobatga olishi lozim - masalan, nomlarning tarixi, urf-odatlar, an'analar va zamonaviy tendensiyalar. Bu ma'lumotlar yordamida, har bir antroponimning ijtimoiy va madaniy kontekstda qanday funksiyalarni bajarishini, uning millat yoki jamiyat tomonidan qanday qabul qilinishini yaxshiroq tushunish mumkin bo'ladi. Natijada, ingliz va o'zbek tillaridagi antroponimlarni qiyosiy tadqiq qilish, tilshunoslikning yangi yutuqlarini anglash, zamonaviy madaniyatni o'zaro sharhlash va ijtimoiy tangliklar o'rtasida ko'prik vazifasini o'taydi. Bu, nafaqat tillararo muloqotni rivojlantirishda, balki xalqlar o'rtasidagi o'zaro tushunish va hamkorlikni mustahkamlashda muhim ahamiyatga ega bo'ladi. Ingliz antroponimlarining ma'nolari har doim ham mamlakat tarixi bilan bog'liq emas, ularga kelt qabilalari, Franko - Normanlar va Anglo - sakson qabilalari ta'sir ko'rsatishgan. Qadimda insonga bir ism berilgan bo'lib, unda sehrli ma'no mavjud deya ishonilgan. Ko'pincha bu nom insonning xarakteri yoki tashqi xususiyatlari haqida gapirar, baxtli hayot tilsim sifatida qaralar edi. Shu tufayli ko'pincha "baxt", "sog'liq", "boylik" kabi so'zlar nomlarga kiritilgan. Ko'pgina erkak ismlari jangovarlik va qat'iyat ma'nolarini ifoda etgan: Charli (er, odam), Oliver (armiya). Uilyam (iroda, orzu), Rayli (mard). Ayollarning ismlari romantik ma'no va muloyimlikni madh etgan: Xazer (Heather), Nilufar (Lily) (nilufar guli). Ifa (go'zallik), (Grace) Greys (lutf, marhamat). Deyl Karnegining fikriga ko'ra, ingliz xalqi, balki butun dunyo xalqlari ham, qadim tarixdan to bugungi kungacha turli xil dinlarga, xudolarga, totemistik, fetishizm va ko'plab urf-odatlariga amal qilgan. Bunday diniy manbalarga ishonish, ularga bo'lgan hurmat ingliz antroponimiyasida hozirgacha saqlanib qolgan. Tarixdan farzandli bo'lish biror bir ilohiy, muqaddas kuchning irodasi, ehsoni deb tushunish natijasida chaqaloqqa o'zlari ishonishgan iloh, e'tiqod etgan narsalar nomi bilan bog'liq tushunchalar ism qilib berilishi natijasida bag'ishlov ismlari paydo bo'lgan bo'lsa, hozirgi kunda ham ism berilishida bunday ishonch va e'tiqodlar muhim o'rin egallaydi. Farzand ota - ona uchun Xudo tomonidan in'om etilgan buyuk ne'mat deb qaraladi.

Antroponimlarning ba'zi turlari mavjudki, ularda tarixiylikdan, tarixan bildirgan ma'nosi bilan bog'langan motivlaridan tashqari ma'lum tarixiy shaxslarni ham motiv sifatida olinish hollari juda ko'plab uchraydi. Bunda ma'lum tarixiy shaxslar o'z shaxsiy xususiyatlari bilan xalqda yorqin, kerak bo'lsa ishonish, o'sha shaxsga nisbatan havasni, etiqodni uyg'ota oladi. Natijada shaxning vafot etishi yoki uning tiriklik paytidan boshlab, shaxsning xususiyatlari uning ismiga ko'chib o'tadi va xalq bunday farzandlarni ko'payishini xohlaydi. Asta sekinlik bilan bu nomlari farzandlarga qo'yishda antroponimning oldingi ma'nosiga qo'shimcha ravishda ma'lum shaxsning siymosi ham qo'shiladi. Ingliz va o'zbek antroponimlarining tarkibida bunday ismlarni juda ko'p uchratish mumkin. Bunda ismlar sirasiga xalqni dushmanlardan ozod etgan, xalq g'amini tushunib, xalqning og'irini yengillashiga o'z hissasini qo'shgan, butun umr vatan ravnaqi uchun xizmat qilib yashagan, ilm-fanda butun dunyoga dong'i ketgan yaxshi fazilatli insonlarga bunday baxtga muyassar bo'lgan. Ingliz shaxs nomlarining tarixiy rivojlanish yo'li angliya-sakslardan boshlanadi. Ular, boshqa qadimgi german qabilalari aholisi kabi, uning tuzilishida bir nomga ega bo'lgan, oddiy (Froda - "dono, eski"; Hwita - "oq" va boshqalar) yoki murakkab (Aethelbeald - "olijanob, ajoyib, a'lo + jasur"; Eadgar - "egalik, mulk, mol-mulk, boy + nayza" va boshqalar). Ba'zi eski ingliz birikmalar nomlari semantik darajadagi maxsus ekzotsentrik kompozitlardir. Bu qo'shma nomlarning ma'nosi ularni tarkib topgan komponentlarning qiymatlari yig'indisi bilan belgilanmaydi. Masalan, Frithuwulf "tinchlik, xavfsizlik + bo'ri", Wigfrit "kurash, urush + tinchlik, xavfsizlik" degan ma'noni anglatadi.¹ Shaxs ismlarni boshqa tildan o'zlashtirib olish ham o'zgarishlar bilan birga keladi. Qabul qiluvchi til tizimi shaxs nomlarni qayta ishlaydi va o'zlashtiradi. Xorijiy so'zning qabul qiluvchi til sistemasi bo'yicha moslashishi barcha til sathlarida - semantik, morfologik, fonetik o'zgarishlarga sabab bo'lmoqda. «Словарю личных имен Белоруссии»² lug'atida mashhur tilshunos M.R. Sudnik "Ruscha ivan nomini hamma ham semantikasini osonlikcha tatqiq eta olmaydi, polyaklarda Yan, armanlarda Avanes, Gruzinlarda Vano, fin millatida Yuhan, nemislarda Hans, frantsuzlarda Jan, inglizlarda esa Yahyo juda

¹ Kuritskaya Elena Vladimirovna, Ph. D. in Military Sciences Naval Academy named after the Admiral of the Fleet of the Soviet Union N. G. Kuznetsov (Branch) in Kaliningrad "Historical way of the english anthroponyms development" article 3-p

² М. Р. Судник «Словарю личных имен Белоруссии» с-5.

boshqacha yaxudiy tilida nomi Johanaan kelib chiqqan, italiyanlarda Jiovanni, ispanlarda Xuan (Joan shaklida fransuz tili adabiyoti orqali butun jahonga tanilgan), portugallarda Joan ". Ko'plab ingliz antroponimlari tarkibiy qismlari Eski ingliz tili davridan (The Old English) manbalaridan olingan. Aelf – Elf, Beorht – yorqin, Beorn – inson, jangchi, qahramon, Eald – qari, yoshi katta, Gifu, Gyfu – sovg'a, god – ezgulik, Gold – tillo; Leof – sevimli, qadrli, Maere – Mashxur, Raed – maslahat, Rice – qudratli, jasur, Sae – dengiz, daryo, Sige – G'alaba, Stan – tosh, Sunu – o'g'il.¹ Demak, "Dictionary of English Surnames" lug'atida berilgan ingliz antroponimlarining ko'plab ismlari o'zbek ismlariga ekvivalent bo'la oladi. Masalan: Beorht – Yorqinjon, Beorn – Qahramon, Gold – Tilloxon, Maere – Mashxurbek, Sige – G'olibjon.

Ingliz va o'zbek tillaridagi antroponimlar o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lib, ularning kelib chiqishi, ma'nosi va funksiyalari orqali xalqlarning madaniyati va tarixini aks ettiradi. Ushbu tahlil natijalari antroponimlar sohasidagi tadqiqotlarni chuqurlashtirish va tillararo muloqotni rivojlantirishga yordam beradi. Shaxs nomlari har bir xalqning ruhiyati, urf-odatlar va qadriyatlar bilan bog'liq bo'lganligi sababli antroponimlarni ikki tilda ham tadqiq qilib o'rganish samaralidir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Kenjayeva S. Bag'ishlov ismlarining bir guruhi haqida. O'zbek tili va adabiyoti, 2011. 2-son. – B.91.
2. Kuritskaya Elena Vladimirovna, Ph. D. in Military Sciences Naval Academy named after the Admiral of the Fleet of the Soviet Union N. G. Kuznetsov (Branch) in Kaliningrad "HISTORICAL WAY OF THE ENGLISH ANTHROPONYMS DEVELOPMENT" article 3-p.
3. М. Р. Судник «Словарю личных имен Белоруссии» с-5.
4. Reaney P., Wilson R. Dictionary of English Surnames. L.: Oxford University Press, 2006. 594 p.
5. Гумбольдт В.Ф. Избранные труды по языкознанию. – Москва, 1984

¹ Reaney P., Wilson R. Dictionary of English Surnames. L.: Oxford University Press, 2006. 594 p.

MUNDARIJA

Расулов З.И. Эллиптик гаплар тадқиқотида айрим лингвистик атамаларнинг қўлланилиши	3
Gadoyeva Mavlyuda Ibragimovna, Xayrulloeva Azizabonu Tojiddinovna. Kiyim-kechak leksikasining lingvomadaniy o'ziga xosligi	5
Gadoeva Mavlyuda Ibragimovna, Rakhmonova Jasmina Matyokubovna. The role of proverbs and idioms in english culture..	11
Djalilova Zarnigor Bakhodirovna, Nutfullayeva Lolakhon Firuzovna. How does culture and social influences effect on advertisement discourse?	15
Saidova Zulfizar Khudoyberdievna. Understanding bloom's taxonomy: its role and impact on the learning process.....	20
Qosimova N.F. Tarjimada asliyatni idrok etishning kognitiv jarayonlari.....	23
Rakhmatova Mekhriniso Musinovna. Implicature of a literary discourse	26
Saidova Muxayyo Umedilloevna. Kogeziya va kogerensiya haqida nazariy qarashlar	29
Saidova Muxayyo Umedilloevna, Sayfiyeva Madina Saydullo qizi. The influence of grammatical cohesion on structural coherence in english literary discourse.....	32
Saidova Muxayyo Umidullayevna, Tursunova Sarvinoz G'afurovna. "Tom sawyerning sarguzashtlari" asarining stilistik tahlili.....	36
A.A.Haydarov, M.U.Yodgorova. Inson tuyg'ulari ifodalanishining o'ziga xos xususiyatlari.....	39
Haydarov Anvar Askarovich, Alimova Mubina. So'z ma'nolarining intensivligi	42
Haydarov Anvar Askarovich, Sattorova Shaxrizoda Umedjon qizi. Qiyoslanayotgan tillardagi fonetik va grafik uslubiy vositalar	46
Kobilova Nargisa Sulaymonovna, Azimova Maftuna. Different viewpoints on the concept of evaluation in language	50
Хайдаров Анвар Аскарлович, Барноева Мадинабону Акбаровна. Градуонимия в узбекском и английском языках: основные подходы и методологии.....	52

Abduqodirova Yulduz Safaraliyevna. Maqollarning jamiyat munosabatlarida aksiolingvistik tahlili	121
Nazarova Navbahor Ahrorovna. Ingliz va o'zbek tillarida antroponimlarning leksik-semantik tahlili	125
Saparova Mohigul Ramazonovna, Maftuna Ibodilloeva. Dealing with factors influencing the listening process	129
Артыков Азаматжон Холмуродович. Лингвистический эллипсис в английском языке: анализ типов и функций эллиптических предложений	132
Shukurova Madina Askarovna. Lexical transformations: an exploration of changes and adaptations in language	138
Usmonova Zarina Habibovna. The types of translation and their features in modern science fiction	141
Ruziyeva Nafisa Zarifovna. An in-depth analysis of euphemisms and the language of politics	145
Kodirova Holida Khayriddin kizi. Linguocultural features of translating false speech acts	147
Bobojonova Nargiza Jumaniyozovna. Linguocognitive analysis of the concept of vocative.....	151
Xayrullayeva Gulasal Farhodovna. Konseptual metafora dunyoni anglashdagi roli	155
Saidov X.Sh., Najmiyev M.M. Abbreviaturalar va ularning tilga ta'siri.....	158
Ruziyeva Nafisa Zarifovna. An in-depth analysis of euphemisms and the language of politics	163
Umurova Xushvaxt Hakimovna, Qahhorova Guli. Conducting foreign language classes through modern teaching methods	167
Yuldasheva Feruza Erkinovna. Understanding diverse cultures through politeness	170
Akhmedova Sarvinoz Hikmatovna, Islomova Bahora. The role of online tools in foreign language teaching	174
Kobilova Aziza Baxriddinovna, Rakhmatova Aziza. Brief overview of types of toponyms	177
Jumayeva Ozoda Ilhomjonovna. Zamonaviy tilshunoslikda lingvomadaniy kodlarning ahamiyati	180
Aziza Yunusova. Diskurs: kontseptsiya evolyutsiyasi va uning tilshunoslikdagi o'rni.....	183

**TILNING LEKSIK-SEMANTIK TIZIMI, QIYOSIY
TIPOLOGIK IZLANISHLAR VA ADABIYOTSHUNOSLIK
MUAMMOLARI**

MATERIALLAR TO`PLAMI

XV

<i>Muharrir:</i>	<i>A. Qalandarov</i>
<i>Texnik muharrir:</i>	<i>G. Samiyeva</i>
<i>Musahhih:</i>	<i>Sh. Qahhorov</i>
<i>Sahifalovchi:</i>	<i>M. Bafoyeva</i>

Nashriyot litsenziyasi AI № 178. 08.12.2010. Original-maketdan bosishga ruxsat etildi: 11.02.2025. Bichimi 60x84. Kegli 16 shponli. «Times New Roman» garn. Ofset bosma usulida bosildi. Ofset bosma qog'ozi. Bosma tobog'i 16,0. Adadi 100. Buyurtma №86

“Sadriddin Salim Buxoriy” MCHJ
“Durdona” nashriyoti: Buxoro shahri Muhammad Iqbol ko'chasi, 11-uy.
Bahosi kelishilgan narxda.

“Sadriddin Salim Buxoriy” MCHJ bosmaxonasida chop etildi.
Buxoro shahri Muhammad Iqbol ko'chasi, 11-uy. Tel.: 0(365) 221-26-45